



ERON XALQ ERTAKLARI: FORS FOLKLORSHUNOSLIGIDA “افسانه” (“ERTAK”) SO‘ZINING ILMIY ATAMASI

O‘A.Umarov, Sh.M.Muxamedov

O‘zDJTU ikkinchi chet tili kafedrası katta o‘qituvchisi

Nizomiy nomidagi TDPUning dosenti

umarov.u@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqolada Eron xalq ertaklaridagi hayvonlar, jumladan tulki va bo‘ri xarakterlariga xos ijobiy va salbiy jihatlari xususida so‘z yuritiladi. Ushbu hayvonlarning xatti-harakati orqali jamiyatlardagi ba‘zi insonlarga xos bo‘lgan fazilat va illatlar ta‘riflanadi.

Kalit so‘zlar: ertak, matal, cho‘pchak, hikoya.

Abstract. This article talks about the positive and negative aspects of the characters of animals, including foxes and wolves, in Iranian folk tales. Through the behavior of these animals, the virtues and vices characteristic of some people in the society are described.

Key words: fairy tale, folk tale, fable, story.

Bizga ma‘lumki, tadqiqotchilar tomonidan ertak haqida va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ko‘pgina ilmiy ishlar amalga oshirilgan hamda umumiy ma‘noda qadim zamonlardan to hozirgi kungacha ertaklar mavjudligi ko‘rsatib kelingan. Shu o‘rinda, masalan, rossiyalik olim Ye.M.Meletinskiy shunday yozadi: “Ertak – og‘zaki san‘atning eng qadimgi turlaridan biridir. Bu xalq ijodiyotining ildizi sinfiy jamiyat yuzaga kelmasdan oldingi davrga borib taqaladi va hozirga qadar odamlarning hamrohi bo‘lib qolib, ularga juda katta badiiy zavq berib keladi. Ertakning yuqori poetik qadriyati ma‘lum jihatdan yuz yilliklar davomida to‘plangan fikrlar, tasavvurlar va xalq hissiyotlarini ifodalashi bilan izohlanadi. Ertak – barcha xalqlarning eng mashhur va eng demokratik turdagi og‘zaki san‘atidir.

Ertak atamasi Mahmud Qashg‘ariyning XI asrda yozilgan “Divonu lug‘atit turk” asarida *etuk* shaklida uchraydi va biror voqyeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma‘nosini bildirib, bu hikoyalar “o‘tmish voqyealardan xabar beruvchi... hikoyalarda faqat o‘tganlar haqida aytilishi shart emas”, deb izohlaydi. Vatanimizda “ertak” so‘zi folklor atama sifatida qubul qilingan bo‘lsa-da, turli viloyatlardagi aholi o‘rtasida matal, ushuk, cho‘pchak, hikoya, afsona, o‘tirik, tural kabi ertak so‘zi sinonimlari ham ishlatiladi.

Eron folklorshunosligida ham shunday holatni kuzatamiz. Fors tilidagi “افسانه” (“ertak”) so‘zining ilmiy atamasi va uning sinonimlarining qo‘llanishi haqidagi masala mutaxassislar o‘rtasida doimo baxs va tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Albatta, bu tabiiy

holatdir, chunki eronliklar va forsiy zabon xalqlar o'rtasida bu janr turli nomlarga ega va bu masalani o'rganishda turlicha atamalar qo'llaniladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, eronlik folklorshunoslar dastlab, tegishli ravishda og'zaki nasrga nisbatan ilmiy atamalarni qo'llash haqida fikrlar bildirmaganlar va bir-biriga o'xshash janrlar o'rtasidagi farqlarni tavsiflamaganlar. Bu masala haqidagi murakkablik yana shu bilan bog'liqki, lug'atlarda va yozuvchilarning asarlarida, xalq va mutaxassislar o'rtasida ishlatiladigan ba'zi atamalar boshqa turli janrlarni bildirsa-da, barcha atamalardan sinonim sifatida foydalanib kelganlar.

Ma'lumki, dastlab, adabiyot tarixi bo'yicha yozma adabiyot janrlari ham turlarga bo'linmagan edi. Vaqt o'tishi bilan ularning chegaralarini olimlar belgilay boshladilar. Eron folklorshunosligida bu ilm-fanning "yoshligini" e'tiborga olgan holda, oxirigi yillarda xalq og'zaki ijodiyoti tadqiqotchilari bu janrlarning vazifalarini qadam baqadam chegaralarini aniqlashtirib, ularning o'ziga xos xususiyat va farqlarini belgilash bo'yicha fikrlar bildirib boshladilar.

So'z "ertak" haqida ketar ekan, biz avvalo, "افسانه" ("ertak") so'zi atamasini ilk o'rta asrlarda yaratilgan kitoblar va og'zaki manbalar bo'yicha nafaqat tarixiy yo'lini, balki Eron folklorshunoslari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni tahlil qilishga harakat qildik. Eng qadimgi lug'atlardan birining muallifi, tahallusi Burhon bo'lgan Muhammad ben Xalaf Tabriziy tomonidan yaratilgan "Foschadan forschaga lug'at"da "افسانه" so'zi shunday izohlangan: "افسونا" ommabop va og'zaki adabiyotdagi juda qadimgi va mashhur hikoyadir. Eron afsonalari ko'pincha nasrda va ba'zida qofiyali tarzda hikoya qilinadi. Fors adabiyotida "افسانه" "afsona" yoki "rivoyat" ko'pgina ma'noga ega bo'lib, ulardan eng asosiylari qissa, hikoyat, tamsil, doston, sargo'zasht, o'tmish haqidagi ostura, yolg'on va asoslanmagan so'zlar hamda ma'lum bir aytilgan fikrlar hisoblanadi".

VI asr oxiri VII asr boshida yashagan adib Muhammad bin Ali bin Muhammad Zahiriy Samarqandiyning asarida "fors adabiyoti matnlarida afsona so'zi barcha nasriy asar shakllariga sinonim sifatida ishlatiladi, ba'zida uni o'rniga qissa, hikoyat, sargo'zasht va hokazo atamalarni ishlatadilar. Aslini olganda bu atamalar ma'lum jihatdan bir ma'nodadir", deb yozgan. Albatta ba'zi holatlarda afsona yolg'on, uydirma qissa, g'alati va g'ayrioddiy hikoyat ma'nosini bildirib kelgan.

Shunday qilib, Eron og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyotda qadim zamonlardan boshlab "ertak" atamasi turli xil va variantlarda qo'llanilgan: Masalan, "افسانه" ("ertak"), "قصه" ("qissa"), "اسطوره" ("mif", "afsona"), "داستان"

* Мазкур луғат Эронда 1899, 1921, 1925, 1926, 1938 ва 1957 йилларда чоп этилган 1952-1856 йилларда турли ислоҳлар, яъни кириш сўзи, батафсил иқтибослар, сўзларнинг ўзакларига шарҳлар, муаллифнинг баъзи хатолари тузатилган ҳолда 5 томдан иборат нашри Муҳаммад Муин томонидан чоп этилган // Қаранг: محمد حسين بن خلف تبریزی (برهان)، فرهنگ لغات فارسی به فارسی، ویراستار محمد معین، مؤسسة انتشارات امیر کبیر، 1335 (چاپ) محمد بن علی بن محمد ظهیری سمرقندی، سندباد نامه، به کوشش محمد باقر کمال الدینی، تهران، 1381. ص. 94، 97، 124. // 124، 97، 94. ص. 1381.

* Муҳаммад бен Али бен Муҳаммад Заҳирий Самарқандий VI аср охири VII аср бошларида Афросиёб сулоласининг энг сўнги подшоҳи Қўлаж Иамғожхон Иброҳим саройида яшаган етакчи адиблардан бири бўлиб, 600 йилда вафот этган // 124، 97، 94. ص. 1381.



(“doston”), “روایت” (“rivoyat”), “حکایت” (“hikoyat”), “ماتل” (“matal”), “نقل” (“naql”, “og‘zaki hikoya”), “سرگزشت” “sargo‘zasht”) va hokazolar.

Shunisi qiziqki, “افسانه” “afsona” atamasini Eronning nafaqat shahar, viloyat va mintaqalarida, balki hatto, alohida qishloqlarida ham turlicha tushunadilar. Bunga sabab, birinchidan, forslarning turli-tuman sheva va lahjalarda so‘zlashishlari va ikkinchi tomondan, Erondagi madaniy va etnik xilma-xillik har bir hudud aholisi ertak ma’nosini ifoda etishi uchun maxsus atamadan foydalanishlariga majbur etgan.

Eron mifologiyasi haqida ko‘pgina asarlar yaratilgan. Biz asarlar haqida so‘z yuritmay, faqat afsona va ertak o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib o‘tish maqsadida ularning ba’zilari ustida qisman to‘xtalib o‘tamiz.

Albatta, Eron mifologiyasining ahamiyatga molik manbalaridan biri “Avesto” hisoblanadi. Mazkur yodgorlikda Yaxshilik va Yomonlik xudolari “Axuramazda va Axrimandan boshlanib, boshqalar, ya’ni yer yuzining barcha suvlarini boshqaradigan va o‘zida pokizalikni mujassamlantirgan Anaxita xudosi, tinchlik uchun kurashuvchi va devlarga qarshi bo‘lgan Virisranna, odamlarni Haqiqat yo‘liga yo‘naltiruvchi Mitra xudosi, urush axtaruvchi Vayu, yomg‘ir xudosi Tatariya, Axuramazdaning o‘g‘li Atar, salomatlik, oziq-ovqat, arzonchilik xudosi Havma va hokazo mifologik qahramonlar haqida juda ko‘p ma’lumotlar mavjud.

Mifologiya haqida mukammal material beruvchi Firdavsiyning yirik va mashhur kitobi “Shohnoma” asarida ham juda ko‘p afsonalar mavjud. Firdavsiy mazkur asarida – Qayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid, Zahhok va Faridun kabi afsonaviy qahramonlarni birin-ketin bayon etgan.

Hozirga qadar Eronning xalq mifologiyasini folklor janri sifatida o‘rganishga katta ahamiyat qaratilmoqda va ko‘plab kitoblar nashr etilmoqda. Ertak bu ermak, ko‘ngil-ochish bo‘lsa, mifologiya qahramonlari harakatiga ishonch, ulardan ma’naviy ozuqlanish munosabatini keltirib chiqaradi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ertaklarning paydo bo‘lishiga afsonalar asos bo‘lgan.

Eron yozuvchisi, adabiyotshunos Jamol Mirsodiqiy dostonga quyidagicha izoh beradi: “Doston umumiy ma’noda yozma yoki og‘zaki, real yoki xayoliy tarzda o‘tmishni ketma-ketlikda bayon etish. Boshqacha qilib aytganda, doston – real va tarixiy voqyealarni, xayoliy va ijodiy fikrlarni ketma-ketlikda berishdir”. Doston turlari haqida so‘z yuritgan J.Mirsodiqiy yana shunday fikrlarni bildiradi: “Fors tilida doston so‘zi qissa, hikoyat, afsona va sargo‘zasht kabilarni belgilashda ishlatiladi va adabiy atama sifatida, bir tomondan, qissalarning turli shakllarini, ikkinchi tomondan, badiiy adabiyotning turli qismlarini, jumladan, doston, roman, uzun doston va shu kabi ijodiy adabiyot qismlarini o‘zida mujassam etgan.

Bu atama Ali Akbar Dehxudo lug‘atida biror kimsaning so‘zlarini yoki xabarlarini aytib berish ma’nosiga ega, Muhammad Muyin lug‘atida ham, xuddi shunday ma’noga ega va bu xabar va hadislar Payg‘ambar (s.a.v.) yoki Imomlar haqida bo‘lishi ham mumkin.

Rivoyatlar asosini voqyealar va tarixiy shaxslar, geografik nomlar va hayovonot olami tashkil qiladi va o'z shakliga ko'ra rivoyatlar afsonalarga o'xshamaydi. Eronda hanuzgacha alohida rivoyatlar chop etilgan to'plamlar mavjud emas. Lug'atlarda esa, bu janrga nisbatan aniq nuqtai nazar yo'q. Lekin afsona va rivoyat o'rtasidagi farqlarga qaramay, ular o'rtasida umumiylik mavjud bo'lib, bu sohada ham aniq ajratishlar hali amalga oshirilmagan.

Rossiyalik sharqshunos I. Braginskiyning yozishicha, "yozma adabiyotni tashkil qiluvchi afsona va rivoyatlarni hikoyachilar, va'zchilar o'z usullarida gapirib beradilar. Shunday qilib, yozma adabiyot va og'zaki ijodiyot o'rtasida o'ziga xos og'zaki shakl mavjud bo'lgan. Yozma adabiyotda mavjud bo'lgan bunday og'zaki shakl asosini turli hajmdagi – kichik latifalardan to katta romanlargacha bo'lgan badiiy matnlar tashkil qilgan. Biroq bu matnlar keng kitobxonlar doirasi uchun emas, faqat tinglovchilar uchun mo'ljallangan. Bu matnlarni aksariyat hollarda hikoyachilarning o'zlari yozib, keyin aytib berganlar va vaqt o'tishi bilan hikoyachilarning bu yozganlari yozma adabiyotga aylanib, ularning qo'lyozmalarini bilimli odamlar o'qishni boshlaganlar".

Avvalgi yuz yilliklarda biz olimlarning tarixiy va falsafiy asarlarida ko'pgina ertaklarni uchratamiz. Bunday asarlarda ertaklar "hikoyat" yoki "rivoyat" nomi bilan keltirilgan. O'z fikrlarini tasdiqlash yoki ifoda etilayotgan voqyealarning hissiyotli ta'sirini o'stirish uchun Nizom ul-mulk o'zining "Siyosatnoma" asarida, Muhammad G'azzoliy o'zining "Nasihati ul-muluk" va "Ajoyib ud-dunyo" asarlarida ertak va rivoyatlardan mahorat bilan foydalanganlar.

Eron hikoyatlarining asosiy manbalari qadimgi Eron hikoyatlari – Bahrom-Go'r, Anushervon hamda hindlarning Kalila va Dimna, To'tinoma, Gresiyaning Aristotel, Sokrat va Aleksandr va hayvonlar haqidagi, arablarning Hotamtoy haqidagi va ko'plab boshqa xalqlarning hikoyatlari hisoblanadi. Undan tashqari, parilar, devlar, jinlar haqidagi hikoyatlar ham shular jumlasiga kiradi.

Matallar bolalar adabiyotida o'yin-qo'shiq shaklida tarqalgan bo'lib, unda nasr va nazm uyg'unlashgan. Matallar qadim zamonlardan mavjud va unda kulgili o'yinlar, yoqimli hikoyalar bolalarda katta qiziqish orttiradi. Matallar hozirgi vaqtda bizning tushunchamizdagi kumulyativ ertaklar hisoblanadi. Ohangdorligi, harakatlarning qaytarilishi tufayli bolalar xotirasida oson saqlanib qoladi.

Hozirgi davrga qadar "نقل" ("naql", "og'zaki hikoya") janr sifatida fors folklorida o'z ifodasini topmagan va ilmiy adabiyotlarda ma'qullanmagan. Bitta dona ham to'plam nashr etilmagan. "نقل" o'z shakli va mazmuni bo'yicha "afsona"dan keskin farq qiladi. "Naql" hikoyaga ancha yaqin, lekin o'z badiiy xususiyatlari tufayli hikoyaga sal yetib bormaydi. Lekin shu bilan birga, afsona va naql o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik mavjud. Masalan, ijrochi ertak bayon etish jarayonida matndan uzoqlashib, unga bir naqlni kiritadi va faqat shundan keyin ertakni boshlaydi. Ba'zida hikoyachi katta badiiy yoki ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan bir naqlga yo ertakning boshida, yoki ertakning oxirida murojaat etadi. Afsuski, hozirga qadar folklorshunoslar masalaning mana shu tomoniga kam e'tibor qaratilgan.



Ali Akbar Dehxudoning lug'atida "نقل" so'zi biron bir begona kishining so'zlarini qayta aytib berish deb izohlangan. Undan tashqari, "نقل" mashhur yoki badiiy mazmunga ega asarni yangi asarga aylantirib bayon qilish demakdir.

Shunday qilib, Eron folklorshunosligida "afsona" so'zining ko'pgina sinonimlari bo'lib, "afsona" va "qissa" atamalari fors ilmiy adabiyotlarda ko'proq uchraydi. "Qissa", "rivoyat", "naql", "asotir", "hikoyat", "doston", "sargo'zasht" kabi atamalar Eron ertaklariga nisbatan qo'llanilsa-da, ularning "afsona" atamasi bilan yaqindan bog'liqdir. "Afsona" so'zi ertak yaratilgan shahar, qishloq lahjasiga qarab, turlicha nomlanishi ham mumkin. Ertaklarning turli-tuman atamalar bilan ifodalanishini eronlik tadqiqotchilarning ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Aslini olganda, og'zaki adabiyotning bu muhim turini belgilash uchun yagona atama ular orasida hanuz umumiy tarzda qabul qilinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomuhamedov Sh. Eron xalq ertaklari. Toshkent. 1959.
2. ersidskiye narodnyye skazki. Perevod i sostavitel A.A. Romaskevich M-L. 1934.
3. Persidskiye narodnyye skazki. Perevod i sostavitel A.Z. Rozenfeld. «Nauka». Moskva. 1958.
4. Persidskiye skazki. Perevod A.Aliyeva, A. Bertelsa, N. Osmanova. Izd-vo Vostochnaya literatura. Moskva. 1958.
5. Persidskiye narodnyye skazki.. Tashkent. 1959.
6. Persidskiye narodnyye skazki. Sost. M.N. Osmanov. Predisl. D.S.Komissarova. Moskva. Izd-vo "Nauka".Moskva. 1987.
7. افسانه ها و متلهای کردی، گردآورده: علی اشرف درویشیان، تهران، 1375.